

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



Ish haqi. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:


Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)


Shahar va tumanlar	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m		O‘sish sur‘ati, %
	2023- yil	2024- yil	
Xorazm viloyati - jami:	3 650,3	4 114,3	112,7
<i>shu jumladan:</i>			
Urganch sh.	4 918,3	5 689,1	115,7
Xiva sh.	2 913,2	3 351,1	115,0
Bog‘ot	2 947,0	3 220,4	109,3
Gurlan	2 720,5	3 001,3	110,3
Qo‘shko‘pir	2 764,3	3 041,0	110,0
Urganch	3 219,2	3 696,3	114,8
Hazorasp	2 718,6	2 935,3	108,0
Tuproqqal‘a	5 088,5	5 322,9	104,6
Xonqa	2 968,9	3 238,2	109,1
Xiva	2 854,0	3 369,2	118,1
Shovot	2 864,3	3 119,9	108,9
Yangiariq	3 500,4	3 837,4	109,6
Yangibozor	2 513,6	2 945,4	117,2

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 5 689,1 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 138,3 %), Tuproqqal‘a tumanida 5 322,9 ming so‘mni (129,4 %) tashkil etgan bo‘lsa, Hazorasp tumanida 2 935,3 ming so‘mni (71,3 %), Yangibozor tumanida 2 945,4 ming so‘mni (71,6 %), Gurlan tumanida 3 001,3 ming so‘mni (72,9 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-sentabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023-2024 yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)




Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yil yanvar- sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)


<i>Sohalar nomi</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- sentabr)</i>		<i>O‘sish sur‘ati, %</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
Xorazm viloyati - jami:	3 650,3	4 114,3	112,7
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	4 108,4	4 339,1	105,6
Qurilish	3 676,1	4 941,9	134,4
Savdo	2 758,8	3 317,4	120,2
Tashish va saqlash	7 084,2	8 793,6	124,1
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 120,4	1 867,9	88,1
Axborot va aloqa	7 487,2	7 688,5	102,7
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	10 374,7	12 374,4	119,3
Ta‘lim	2 897,7	3 319,0	114,5
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	3 206,2	3 567,6	111,3
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 645,5	3 032,8	114,6
Boshqa faoliyat turlari	4 139,0	4 793,4	115,8

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 114,3 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 12,7% ga o‘sishi kuzatildi. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur‘ati qurilishda - 34,4 %, tashish va saqlash faoliyatida – 24,1 %, savdoda – 20,2 %, ta‘lim – 15,8 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 19,3 %, San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish –14,6 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda –11,3 %, sanoatda– 5,6 %, axborot va aloqada– 2,7 % darajada kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati
 (2024- yil yanvar-sentabrda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, foizda)




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqining yanvar- sentabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2024- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 339,1 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilning huddi shu davrida 2 599,4 ming so'mni, 2021- yilda 2 932,4 ming so'mni, 2022- yilda 3 496,3 ming so'mni, 2023- yilda 4 108,4 ming so'mni tashkil qilgan va o'tgan yillarga nisbatan 166,9 % darajada ko'paygani kuzatildi.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni
(2024- yil yanvar-sentabr, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)




Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni, nominal hisoblangan ish haqi, o'rtacha oylik ish haqi.

(2024- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mln so'm	Ortacha oylik ish haqi, ming so'm
	2024- y.	2024- y.	2024- y.
Xorazm viloyati – jami:	141 176	5 146 390,5	4 114,3
Sanoat	20 402	796 739,0	4 339,1
Qurilish	2 473	109 991,2	4 941,9
Savdo	964	28 782,1	3 317,4
Tashish va saqlash	4 085	323 296,4	8 793,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	161	2 706,6	1 867,9
Axborot va aloqa	779	53 904,0	7 688,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 423	269 847,7	12 374,4
Ta'lim	65 403	1 953 652,1	3 319,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25 453	817 262,2	3 567,6
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 949	53 198,7	3 032,8
Boshqa faoliyat turlari	17 084	737 010,5	4 793,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, **sanoatda** – 20 402 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 796 739,0 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 339,1 ming so'mni, **qurilishda** – 2 473 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 109 991,2 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 941,9 ming so'mni, **savdoda** - 964 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 28 782,1 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 317,4 ming so'mni, **tashish va saqlashda** – 4 085 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 323 296,4 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 793,6 ming so'mni, **axborot va aloqada** – 779 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 53 904,0 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 688,5 ming so'mni, **moliyaviy va sug'urta faoliyatida** – 2 423 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 269 847,7 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 12 374,4 ming so'mni, **ta'limda** -65 403 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 953 652,1 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 3319,0 ming so'mni, **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 453 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 817 262,2 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 567,6 ming so'mni, **san'at, ko'ngil ochish va dam olish** -1 949 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 53 198,7 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 032,8 ming so'mni tashkil etgan.





4 941,9 ming so‘m

Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar-sentabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi




2024- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 941,9 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, huddi shu davr 2020- yilda 2 443,5 ming so‘mni, 2021- yilda 2 863,2 ming so‘mni, 2022- yilda 3 035,0 ming so‘mni, 2023- yilda 3 676,1 ming so‘mni tashkil qilgan va o‘tgan yillarga nisbatan 2,2 martaga oshgani kuzatildi.

Tashish va saqlash sohasida 2024-yilning yanvar-sentabrda o'rtacha oylik ish haqi



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 793,6 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu davr 2020- yilda 4 156,3 ming so'mni, 2021- yilda 4 191,6 ming so'mni, 2022- yilda 6 508,5 ming so'mni, 2023- yilda 7 084,2 ming so'mni tashkil qilgan va o'tgan yillarga nisbatan 2,1 martaga ko'paygani kuzatildi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)


(2024-yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>	<i>Viloyatga nisbatan foizda</i>
Xorazm viloyati	3 319,0	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Urganch. sh	5 014,2	151,1
Xiva. sh	3 325,4	100,2
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	3 003,1	90,5
Gurlan	2 792,5	84,1
Qo'shko'pir	2 732,6	82,3
Urganch	2 979,7	89,8
Hazorasp	2 813,0	84,8
Tuproqqal'a	2 704,9	81,5
Xonqa	3 150,3	94,9
Xiva	2 889,2	87,1
Shovot	2 929,5	88,3
Yangiariq	3 528,5	106,3
Yangibozor	2 769,4	83,4

Ta'lim sohasida jami 65 403 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 319,0 ming so'mni tashkil etgan va 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,5 % ga o'sdi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

(2024-yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.